

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

MINENKO YEKATERINA PAVLOVNA

**QUYOSHDAGI KORONAL YORQIN NUQTALARNING
MORFOLOGIYASI, DINAMIKASI VA FIZIKAVIY MODELLARI**

01.03.01 – Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам УДК: 523.98**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Minenko Yekaterina Pavlovna

Queshdagi koronal yorqin nuqtalarning morfologiyasi, dinamikasi va
fizikaviy modellari..... 3

Миненко Екатерина Павловна

Морфология, динамика и физические модели корональных ярких
точек на Солнце 21

Minenko Ekaterina Pavlovna

Morphology, dynamics and physical models of coronal bright points on
the Sun 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

MINENKO YEKATERINA PAVLOVNA

**QUYOSHDAGI KORONAL YORQIN NUQTALARINING
MORFOLOGIYASI, DINAMIKASI VA FIZIKAVIY MODELLARI**

01.03.01 – Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/FM58 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.astrin.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Shuxrat Abdumannapovich,
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Xolikov Shukirjon Sodikovich,
fizika-matematika fanlari doktori

Gaynullina Evelina Rabinovna,
fizika-matematika fanlari nomzodi,
katta ilmiy xodim

Yetakvhi tashkilot:

V.G. Fesenkov nomidagi Astrofizika instituti,
Qozog'iston

Dissertatsiya himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, Astronomiya instituti. Tel.: (+99871) 235-81-02, faks: (+99871) 234-48-67, e-mail: info@astrin.uz).

Dissertatsiya bilan Astronomiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100052 Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy, O'zR FA AI. Tel.: (+99871) 235-81-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “__” _____ dagi __ - raqamli reestr bayonnomasi).

D.Sh. Fazilova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

I.A. Ibragimov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f.n., katta ilmiy xodim

A.B. Abdikamalov,

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy kosmik kuzatuvlarning rivojlanishi bilan tobora kichik masshtabli shakllanishlarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Koronal yorqin nuqtalarning (KYN) fizik xususiyatlarini aniqlash, ularning dinamikasi va evolyutsiyasini o'rganish, shuningdek, Quyosh magnitizmi bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganish, ularni aniqlash uchun yangi usullar va yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi hamda quyosh shamoli paydo bo'lishi va korona qizishi masalalarini hal qilish muammosini keltirib chiqardi. Bu muammoni hal qilishda Xalqaro Astronomik Ittifoqi (XAI): «Yangi avlod kuzatuv ma'lumotlari astrofizika va plazma fizikasi bo'yicha fundamental savollarga javob beradigan nazariy modellarni ishlab chiqishni rag'batlantirish, masalan, Quyosh va magnit faollik sikllarining kelib chiqishi, erupsiya jarayonlari mexanizmlari, magnit qayta birlashish jarayonlari, xromosfera va koronaning qizishi, energiyali zarralarning tezlanishi va tarqalishi, shuningdek, Quyosh hodisalarining Yerga va Quyosh-Yer kosmik muhitiga salbiy ta'sirini o'rganish»¹ vazifalarini belgilab berdi. Ushbu vazifalarni hal qilishda turli masshtabli magnit maydonlar bilan bog'liq ravishda koronal yorqin nuqtalarning nozik tuzilishi, evolyutsiyasi, lokalizatsiyasi va taqsimotini o'rganish lozim bo'lib, bu Quyosh atmosferasida asosiy fizik jarayonlarning qanday ishlashini kuzatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu esa KYN va magnit bipolyarlarning (MB) kuzatilgan ma'lumotlarini har tomonlama statistik tahlil qilish, ularning evolyutsiyasi jihatlarini o'rganish, va kuzatuvlar bilan mos keladigan nazariy modellarni yaratishni talab qiladi. Ushbu dolzarb masalalarni hal qilish quyosh atmosferasining o'zgaruvchanligini o'rganish uchun koronal va fotosferik magnit maydonlarni baholashga, ichki dinamika va magnit faollik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga, quyosh faolligi tsikllari va uning ta'sirlarini yaxshiroq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda quyosh fizikasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarga, xususan, Quyosh atmosferasidagi kichik o'lchamli tuzilmalarning yupqa qatlamlarini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"²da² belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, quyosh kuzatuvlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, xususan, kichik o'lchamdagi nuqtaviy manbalarning xossalari va xususiyatlarini har tomonlama o'rganish zarurati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Astronomiya instituti Toshkent Astronomiya Observatoriyasi (TAO)ning butun faoliyati davomida Quyosh kuzatuv natijasida to'plangan ma'lumotlarining boy arxiviga ega bo'libgina qolmay, balki o'n yildan ortiq vaqt davomida KYNni o'rganishni ham qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

¹ IUA Strategic Plan 2020-2030. https://www.iau.org/static/administration/about/strategic_plan/strategicplan-2020-2030.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

Rentgen va ultrabinafsha diapazonlarida kuzatilgan kompakt tuzilmalar ustida ishlash akademik Sh.A. Egamberdiev tomonidan 80-yillarning boshlarida boshlangan, keyinchalik esa professor I.S. Sattarov jamoasi tomonidan davom ettirilgan. Bu boradagi tadqiqotlar yuqori xalqaro miqyosda olib borilmoqda, bu esa uni AQSh, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari va boshqa astronomik markazlar bilan hamkorlikda olib borish imkonini beradi. Yuqoridagi sabablarni inobatga olgan holda, tadqiqot mavzusi ancha qiziqarli va dolzarb bo'lib, bu nafaqat uni o'rganishning ilmiy ahamiyati va o'rni, balki ushbu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar zarurligini ham ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PP-5032-sonli "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda berilgan vazifalari amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Ilm-fani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 29.10.2020-yilda chiqarilgan PF-6097-sonli farmonining 3-bob "Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"da keitirilgan bandlari - "uchinchisi, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish" va "beshinchisi, ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi olimlari, masalan, amerikalik (L.Golub, A.S.Kruger, K.L.Xarvi, S.F.Martin, D.V.Longkop, S.K.Kankelborg, E.N.Parker, S.V. Makintosh, J.L.Nelson, A.A.Pevtsov, M.S.Madjarska, G.S.Vajari, R. Habbal, G.L. Withbroe, N.R Sheeley, D. Moses, A.F. Timothy va boshqalar), xitoylik (Ch. Mou, Z. Huang, Q.M. Zhang, P.F. Chen, T.J. Vang, C. Lu, X. Tian, M. Wan, P.X. Gao. va boshqalar), ingliz olimlari (C.E. Parnell, B. Ramsey, E. Vervichte, X. Morgan va boshqalar), yapon olimlari (X. Xara, K. Nakakubo-Morimoto va boshqalar), eron (N. Alipur, X. Safari, D. E. Innes va boshqalar), Rossiyalik olimlar (A. N. Jukov, B. Filippov, A. G. Tlatov, V. I. Abramenko, A. S. Ulyanov, va boshqalar), nemis olimlari (D.A.Myuller, V.X.Xanstin, X.Piter va boshqalar) tomonidan turli to'lqin uzunligi diapazonlarida KYN bo'yicha katta hajmdagi kuzatuv ma'lumotlari olindi, kichik o'lchamli tuzilmalarning eksperimental va nazariy tadqiqotlari, ularning fizik va fazoviy xususiyatlarini o'rganish amalga oshirildi, ularning paydo bo'lishining fizik modellari taklif qilindi, KYN va quyosh faolligining boshqa ko'rinishlari o'rtasidagi munosabatlarning statistik tahlili amalga oshirildi. Ushbu ilmiy guruhlardan tashqari, Astronomiya institutida bir qator ilmiy guruhlar (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sh.A.Egamberdiev, I.Sattarov, N.Karachik, Ch.Sherdanov) KYNlar tadqiqoti sohasida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

xromosfera panjarasining yacheykalariga nisbatan yorqin nuqtalarning lokalizatsiyasi aniqlandi, KYNni kuzatish asosida tojning differensial aylanishi va KYNning quyosh faolligi aylanishi bilan bog'liqligi bo'yicha ikki turdagi KYN tasnifi taklif qilindi.

KYNlar bo'yicha tadqiqotlar yarim asrdan ko'proq vaqtdan beri davom etayotganiga qaramay, ushbu ob'ektlar fizikasi bilan bog'liq ko'plab savollar ochiqlicha qolmoqda, shu jumladan: ko'rinish effekti KYN va quyosh dog'lari sonlari orasidagi kuzatiladigan antikorrelyatsiya uchun javob beradigan yagona omilmi; nima uchun barcha bipollar KYN ga mos kelmaydi va qaysi o'ziga xos MBlar KYN shaklida paydo bo'ladi; nima uchun KYNning umumiy soni tsiklga bog'liq holda o'zgaradi, lekin MBlar va boshqalar soni o'zgarmaydi. KYN va MB o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmlarining ko'plab modellari mavjudligiga qaramasdan, ularning barchasi kuzatuv natijalari bilan bir qator kamchiliklar va nomuvofiqliklarga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining F.6-14 "Quyoshdagi magnit maydonlarning rivojlanish dinamikasi va topologiyasini o'rganish", (2014-2015); EF-FA-F006 "Quyosh tojining kichik miqyosdagi shakllanishi va yirik magnit maydonlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish" (2016-2017), VA-FA-F-2-009 "Quyosh faolligi: toj yorqin nuqtalarining tuzilishi va evolyutsiyasi, mahalliy magnit maydonlar bilan bog'lanish mexanizmi" (2017-2020) ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi KYNlarning asosiy parametrlaridan, yupqa qatlamli tuzilmalari va evolyutsiyasi, uzoq davrli o'zgarishlar va kenglik-uzunlik bo'yicha taqsimotini tahlili, shuningdek, turli masshtabdagi magnit maydonlari bilan bog'liqligini batafsil o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

astronomik ma'lumotlarni qayta ishlash muhitida Quyoshning katta hajmdagi raqamli tasvirlari va magnitogrammalarini (SDO, SOHO, SOLIS) avtomatlashtirilgan, yuqori tezlikda va standartlashtirilgan qayta ishlovlar uchun ixtisoslashtirilgan IDL astronomik dasturlar paketlarini (skriptlarni) ishlab chiqish. KYN va MBni, ularning integral parametrlarini qayd etishning avtomatik usulini ishlab chiqish;

KYN - MB juftligi evolyutsiyani, shu jumladan koronal teshik (KT) sharoitida o'rganish;

KYN va MB ning uzoq muddatli kenglik-vaqt o'zgarishlarining tahlili (veyvlet tahlil);

Quyosh siklining fazasiga bog'liq holda KYN va MBning o'rtacha oylik sonining vaqt-fazo taqsimotini, siklik o'zgarishlarini va yirik masshtabdagi magnit maydonlar (YMMM) bilan bog'lanishini o'rganish;

magnit maydondagi plazmaning statsionar silindrsimon simmetrik holatlari asosida KYNning analitik modeli doirasida magnit naychaning asosiy parametrlarini hisoblash.

Tadqiqot obyekti Quyosh atmosferasi bo'lib, uni o'rganish Quyosh ichidagi fizik jarayonlarni, ularning magnit maydon va quyosh faolligi bilan bog'liqligini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot predmeti - fotosfera, xromosfera, toj va oraliq mintaqalar (SOLIS, SOHO, SDO) filtrlarida, raqamli tasvirlar va magnitogrammalar yordamida o'rganilgan KYN va ular bilan yaqindan bog'liq bo'lgan kichik masshtabli MBlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Ushbu ishda quyidagi usullar qo'llanilgan: kuzatilgan ma'lumotlarni statistik tahlil qilish, Morle funktsiyasi bo'yicha veyvlet almashtirishlar, modellashtirish, Quyoshning raqamli tasvirlari va magnitogrammalar ko'rinishidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni onlayn qayta ishlashning maxsus usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

KYN va MB kuzatuvlari bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar banki yaratildi, unda chorak asrdan ko'proq vaqt davomida olingan (1996 yildan 2023 yilgacha), uzluksiz va zich ma'lumotlar to'plamlaridan foydalanilgan (SOLIS, SOHO, SDO);

birinchi marta yirik masshtabdagi magnit maydonlariga nisbatan Quyosh faolligining ikkita tsikliga doir bir jinsli ma'lumotlarga asoslanib, KYN va MBlarning taqsimoti masalalari batafsil o'rganilgan;

Koronal teshiklar sharoitida KYN-MB juftligining evolyutsiyasi batafsil ko'rib chiqilgan;

birinchi marta MB va turli kengliklardagi ikki turdagi KYTlarning veyvlet tahlili o'tkazilgan;

magnit trubaning asosiy parametrlari magnit maydondagi plazmaning statsionar silindrsimon-simmetrik holatlariga asoslangan analitik model doirasida baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari Quyosh tojining tarkibiy tuzilmalari va alohida xarakteristikalariga tegishli bo'lgan yangi faktlar olindi va katta statistic materiallar asosida ilgari olingan ma'lumotlar tekshirildi. Olingan natijalar, chaqnash mexanizmlari haqidagi savollarni hal qilishga yaqinlashish va quyosh tojining shakllanishida nuqtaviy tranzientlarning roli va ularning Quyoshdagi, xususan, toj magnit maydonidagi magnit jarayonlari bilan bog'liqligini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Olingan natijalardan quyosh faolligining mavjud nazariy modellarini sinash va yangi nazariy modellarini qurish uchun ham foydalanish mumkin. KYN va MBlar bo'yicha chorak asrdan ortiq (1996 - 2023 yillar) vaqt mobaynida doimiy va uzluksiz kuzatuvlar natijasida ishlab chiqilgan metodlar va qayta ishlangan ma'lumotlar to'plamlaridan Quyosh dinamikasini keyingi tadqiqotlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya natijalari va xulosalari katta hajmdagi kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlashga zamonaviy tahlil usullarini qo'llash asosida olinganligi bilan asoslanadi. Qo'shimcha ishonchlilik olingan ma'lumotlarning boshqa tadqiqotchilarning xulosalari bilan mos kelishi, shuningdek, KYNning hisoblangan parametrlari va

xususiyatlarining kuzatishlar bilan yaxshi muvofiqligi bilan ta'minlanadi. Qo'shimcha ishonchlik, olingan ma'lumotlarning boshqa tadqiqotchilarning xulosalari bilan mos kelishi, shuningdek, KYNning hisoblangan parametrlari va xususiyatlarining kuzatishlar bilan yaxshi muvofiqligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati, birinchi navbatda, ishning atmosferaning turli qatlamlarini qoplab oluvchi bir nechta kosmik (SOHO, SDO) va yer (SOLIS) observatoriyalardan olingan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ikki turdagi KYN va MBlardagi uzoqdavrlı variatsiyalarning o'rtacha oylik tsiklik o'zgarishlari va chastota-vaqt tahlili, lokalizatsiyasi, evolyutsiysi natijalari birinchi marta topildi. Ushbu natijalar nafaqat KYN-MB juftligidagi bog'lanish strukturasini modellashirish sifatini yaxshilaydi, balki quyosh faolligini tushuntirish uchun ham muhimdir.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqilgan raqamli tasvirni qayta ishlash va tahlil qilish usullari nuqtaviy manbadan olingan tasvir sifatini oshirish talab qilinadigan boshqa sohalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. KYN-MB juftligi evolyutsiyasini tadqiqoti natijalari va Quyosh dinamikasi observatoriyasi (SDO/AIA) tasvirlari bo'yicha ishlab chiqilgan identifikatsiya va kuzatuv metodlari bir qator xorijiy mualliflarning ishlarida qo'llanilgan (xorijiy ilmiy jurnaldagi havolalar, Astronomy&Astrophysics, Volume 587, id.A29, 2016¹; Astronomy&Astrophysics, Volume 678, id.A184, 2023²) bunda, 1) quyosh aylanish tezligi profilini o'lchash va ≈ 6 oy davomida SDO/AIA ma'lumotlari asosida meridional oqimlarni o'rganish; 2) 346 KYNning statistik xususiyatlari va ularning AIA asbobining EUV kanallarida ko'rinishini o'rganish, KYN aylanish tezligining turli profillarini fotosferaning differentsial aylanishiga bog'liqlikni aniqlash uchun sinab ko'rish, Master's Thesis „Vom-Blatt-Dolmetschen als translatorische Hybridform: Strategien von DolmetscherInnen und ÜbersetzerInnen im Vergleich“ Julia Viktoria Klug, Vienna 2016, <https://phaidra.univie.ac.at/detail/o:1328258.pdf>.

SOLIS/VSM va SDO/HMI magnitogrammlarida MBlarni avtomatik toppish dasturi va yangi metodlarini o'z ichiga oluvchi natijalardan, shuningdek, KMMLariga nisbatan tanlangan MBlarning lokalizatsiyasi va oriyentatsiyasi, evolyutsiyasi, plazmali muhitdagi magnit trubkasi muvozanatini tasvirlovchi analitik model, xromosfera va fotosferadagi MBlar sonining kenglik-vaqt taqsimotidan, Davlat ilmiy-texnikaviy dasturi doirasidagi qo'llab-quvvatlash fondining F.6-14-sonli “Quyoshdagi magnit maydonlarning rivojlanish topologiyasi va dinamikasini o'rganish” (O'zR FA 2014-2015) fundamental tadqiqoti masalalarini yechishda muvafaqiyatli foydalanilgan. Birinchi marta Quyoshning 11 yillik tsikli davomida ikki turdagi KYN o'rtasidagi farqlarni, shuningdek koronal teshiklardagi KYN va MB evolyutsiyasi tadqiqoti asosida olingan natijalar EF-FA-F006 “Quyosh tojining kichik masshtabli shakllanishlari va yirik magnit maydonlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish” (O'zR FA, 2015-2017)” grantining asosi bo'ldi. Tanlangan KYNlarning oriyentatsiyasi va

evolyutsiyasini o'rganish natijalaridan, ikki turdagi KYNlarning kenglik taqsimoti, shuningdek tahlil usullari va statsionar plazmadagi magnit trubkaning ishlab chiqilgan analitik modeli Davlat ilmiy-texnikaviy dasturi doirasidagi VA-FA-F-2-009 "Quyosh faolligi: toj yorqin nuqtalarining tuzilishi va evolyutsiyasi, magnit maydonlar bilan bog'lanish mexanizmi" (2017–2020) fundamental tadqiqotini amalga oshirishda foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 20 ta ortiq xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti seminarlarida ma'lum qilindi va muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 45 ta ilmiy ish nasr qilingan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, ularning 6tasi xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil etgan.

DISSERTASINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi, unga erishish uchun aniq vazifalar va ularni hal etish metodlari, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etilgan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy qoidalar, natijalarning aprobatsiyasi keltirilgan. Dissertatsiyaning umumiy tavsifi uning qisqacha mazmunini ko'rsatgan holda berilgan. Quyoshning magnit maydonini, xususan KYN va MB ni astronomik tadqiq etishning ahamiyati ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning "**Quyosh atmosferasidagi tranzit hosilalarning tuzilishi va dinamikasi**" deb nomlangan I bobining 1.1-paragrafida Quyoshdagi magnit jarayonlari va ularning Quyosh faolligi namoyon bo'lish qonuniyatlari hamda tranzit hodisalarning paydo bo'lishi bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Koronal yorqin nuqtalar (KYN) magnitli fotosfera tuzilmalari va efemer sohalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilingan. 1.2-paragrafda KYNning mavjud nazariy modellari tahlil etilgan, ko'rib chiqilgan modellarning afzalliklari va kamchiliklari solishtirilgan, tadqiqot vazifalari asoslab berilgan. 1.3-paragrafda Quyoshdagi tranzit tuzilmalar dinamikasini o'rganishda foydalaniladigan asosiy kosmik va yerdagi observatoriylarning ro'yxati keltirilgan. 1.4-paragrafda ma'lumotlarni kompleks qayta ishlash va tahlil qilish haqida ma'lumotlar berilgan, raqamli tasvirlar va magnetogrammalarni dasturiy qayta ishlash usullarining mazmuni yoritilgan.


Dissertatsiyaning II bobi **“Quyosh tojidagi yorqin nuqtalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq kichik miqyosdagi magnit maydonlarning evolyutsiyasi va topologiyasi”** deb nomlangan bo‘lib, u to‘rtta paragrafdan iborat. 2.1-paragrafda magnitli qayta ulanish modeli doirasida KYN - MB juftligining asosiy xususiyatlari va rivojlanishi tahlil qilingan. Amalda barcha kuzatiladigan KYNlarni magnit qayta ulanishning standart modeli doirasida tushuntirish mumkin emasligi aniqlangan. Quyosh tuzilmalarining, shu jumladan KYNning asosiy xususiyatlari ularning eng yuqori intensivligi va o‘lchamidir. KYN va MB o‘lchamlari piksellarda ifodalangan, bunda 1 piksel taxminan 0,6 yoy sekundiga teng. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, KYN soni o‘lcham ortishi bilan eksponensial tarzda kamayadi (1-rasm, a). Aniqlangan barcha KYNlarning asosiy qismi 10 pikseldan oshmaydigan, ya‘ni taxminan 6 yoy sekundlik o‘lchamga ega bo‘lgan yetarlicha kichik tuzilmalarga tegishli ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Aniqlangan barcha KYNlarning ko‘pchiligi o‘rtacha yashash vaqti bir soatdan kam bo‘lgan kichik o‘lchamli tuzilmalardan iborat.



1-rasm. Sonning taqsimlanish grafiklari: a) KYNning o‘lcham bo‘yicha (piksellarda); b) KYNning intensivlik qiymati bo‘yicha.

Aniqlanishicha, aksariyat KYNlar 300 dan 800 DN gacha bo‘lgan yetarlicha tor diapazondagi intensivlikka (tasvirning har bir pikseli ma‘lumotlari raqamli sonlarda - Data Number) ega bo‘lib, maksimumi 480 ga teng (1-rasm, b). Yuqori intensivlik sohasida taqsimot eksponensial ravishda kamayadi. KYNlarning umumiy soni bunday taqsimoti ikki turdagi KYNning xatti-harakatini tavsiflaydi, bunda “xira” KYNlar (intensivligi 400 DN dan kam bo‘lgan) “yorqin” KYNlardan (intensivligi 450-480 DN dan ortiq bo‘lgan) ko‘proq. Ushbu taqsimot KYNlarni intensivligi bo‘yicha ikki turga ajratish metodikamizning to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Magnit qutblanishlarning paydo bo‘lishi va yo‘qolishiga qarab, turli xil KYAT turlari, morfologiyadagi variatsiyalardan tashqari, vaqt o‘tishi bilan turlicha rivojlanadi. “Xira” KYNlar uchun yangi kichik miqyosdagi magnit tuzilmalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqlik xosdir. “Yorqin” KYNlar esa magnit oqimlarining yo‘qolishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu fotosferada magnit oqimlarining yo‘qolishi sifatida namoyon bo‘ladi.

2.2-paragrafda tojdagi tanlangan o'nta KYN va ularga mos keladigan MBlarning fotosferadagi evolyutsiyasi, yupqa qatlam tuzilishi, statistik va fizik xususiyatlarini o'rganish natijalari keltirilgan.



2-rasm. Chap tomonda oqimning manfiy (tire-ko'p nuqta-tire) va musbat (tire-nuqta) qiymatlarining o'zgarish egri chiziqlari, punktir bilan KYNning piksellardagi maydoni, maksimal intensivligi (tutash chiziq) va DN da olingan KYN №1 ning o'rtacha intensivligi (punktir) ajratilgan. O'ng tomonda oq rang bilan KYN konturi (yuqoridan o'ng tomonda) va unga mos magnetogramma fragmenti belgilangan.

Ba'zi hollarda KYN rivojlanishi an'anaviy "magnit oqimlari yo'qolishi" manzarasiga mos kelmasligi mumkin. 2-rasmning o'ng tomonida magnit maydon kuch chiziqlarining fotosfera sirti bilan kesishish tabiati to'liq aniq bo'lmagan KYN misoli tasvirlangan. Bu holda KYN bir nechta halqalardan iborat bo'lishi mumkin. Taxminlarga ko'ra, P1-N1 va P2-N2 oqimlari kattaroq halqani, N1-P3 esa kichikroq halqani hosil qiladi, ammo magnit kuch chiziqlarining taqsimoti murakkabroq tuzilishga ega bo'lishi mumkin. KYNning rivojlanishi ushbu "o'zaro ta'sir"ning yakuniy natijasini beradi, odatda talqin qilinganidek emas, balki ikki qutb o'rtasidagi magnit o'zaro ta'sirlarning boshlanishi tojda KYNning paydo bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotda (K. Yoshimuraning 2012) magnitli qayta ulanishdan tashqari energiya ajralishining boshqa mexanizmlari mavjud bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

Biz, shuningdek, ikki qutblik orasidagi soha ustida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan KYN misolini ko'rib chiqdik. Bunda qutbliklardan biri oqimlarning yo'q qilinishiga jalb etilishi mumkin.. Shu munosabat bilan qayta ulanish KYNning shakllanish jarayonida boshlanadi va boshqa omillar bilan belgilanishi mumkin deb taxmin qilish mumkin. Katta miqyosdagi magnit maydon KYNning oriyentatsiyasi va joylashishiga ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi g'oya oldingi tadqiqotda taklif qilingan (Nelson va boshq., 2000). Kuzatuvlarning butun davri davomida har bir aniqlangan yorqin nuqta uchun cheklangan soha doirasida ikki





daqiqadan ko'p bo'lmagan yashash vaqti bilan kichik "elementar" KYNlar paydo bo'ldi va yo'qoldi.

2.3-§ da yakkalangan ekvatorial KT sharoitida KYNning ikki turi evolyutsiyasi ko'rib chiqiladi. Ekvatorial KT ichida MB bilan bog'liq KYNlarning paydo bo'lishi va evolyutsiyasining 18 ta holati ko'rib chiqilgan. KYNning tanlangan holatlari ekvator va ekvatorial sohani (6 ta nuqta), faol sohalar zonasini qamrab oladi (shimoliy yarimsharda faqat 5 ta, janubiy yarimsharda esa 7 ta nuqta topilgan). Har bir KYN uchun quyosh tojida KYN paydo bo'lishining mumkin bo'lgan mexanizmi sifatida qutblarning konvergentsiyasi, ajralishi, qo'shilishi va annigilyatsiyasi kabi evolyutsion rivojlanishining asosiy parametrlari o'rganilgan. MB uchun ikkala qutblilikning yig'indi yuzasining o'zgarishi ko'rib chiqildi va ikkala qutblilikning har bir oqimining harakati (markaz koordinatalari bo'yicha) bo'yicha natijalar olindi. Shuningdek, ijobiy va salbiy oqimlar qiymatlarining o'zgarishi ko'rib chiqilgan. Ko'pchilik hollarda (18 tadan 10 tasi) qutbliliklardan biri "barqaror" markazni hosil qiladi, bu markaz bitta qutblilik yoki bitta qutblilikning bir-biriga yaqin sochilgan mayda oqimlari guruhi bo'lishi mumkin. Ko'rib chiqilgan barcha KYNlarning yettitasida "barqaror" markaz manfiy qutblanishdir, ya'ni ko'rib chiqilgan KTda dominant qutblanishdir, to'rtta holatda u musbat, yana to'rtta holatda qutblanishlar o'rtasida o'tish kuzatiladi. Uchta holatda "barqaror" markaz aniqlanmadi.

18 ta holatdan 9 tasida KYNning paydo bo'lishi qutblanishlarning yaqinlashuvi bilan bog'liq (ulardan faqat to'rttasida qutblanishlarning yaqinlashuvi va annigilyatsiyasi jarayoni sodir bo'ladi), 6 ta holatda yangi qutblanishning paydo bo'lish jarayoni kuzatiladi. Faqat ikki holdagina manfiy qutblanish paydo bo'ladi. 6 holatda yetakchi qutblilik buziladi va KYN so'nadi.

Ko'rib chiqilgan holatlarda barcha kuzatilgan KYNlarning 17 foizi I turga, 83 foizi esa II turga mansub. Aniqlanishicha, KTdagi har bir KYN turi uchun evolyutsion rivojlanish jarayoni turlicha kechadi. Faol Quyoshning "yorqin" KYNlari uchun magnit oqimlarining yo'q bo'lish jarayoni xos bo'lib, u fotosferada magnit oqimlarining yo'qolishi sifatida namoyon bo'ladi. "Xira" KYNlar esa oqimlarning ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. "Yorqin" KYNlarning maksimal intensivligi "xira" KYNlarnikidan yuqori. Bu farq fotosferadagi MB kuchlanganlik qiymati bilan bevosita bog'liq bo'lishi mumkin. Kuzatilayotgan "yorqin" II tipdagi KYNlarning MB magnit oqimlarining o'rtacha qiymati $1-5 \times 10^{20}$ Mx atrofida, "xira" I tipdagi KYNlar bilan bog'liq MB holatida esa qiymatlar bir daraja past – $1-5 \times 10^{19}$ Mx ekanligi aniqlandi. MB umumiy maydonining qiymatlarida ham farq kuzatiladi. I tipdagi KYN bilan bog'liq MB uchun 8 burchak sekundli yuqori chegara xos bo'lsa, II tipdagi KYNda esa bu qiymat 12 burchak sekunddan oshishi mumkin.

2.4-paragrafda QF siklining fazasiga bog'liq holda ikkala turdagi KYN va MB sonlarining o'zgarishida veyvlet-tahlil asosida vaqt va fazoviy qonuniyatlarni aniqlash natijalari ko'rib chiqilgan.



3-рasm. KYN sonining o'zgarishi (yuqorida) va turli kengliklarda KYN sonining vaqt profili uchun tegishli veyvlet-spektri (pastda): a – barcha kengliklardagi yig'indi; b – ekvatorial mintaq; v – faol hosilalar mintaqasi; g – yuqori kengliklar. Yuqoridagi grafiklarda qizil rangda Sn quyosh dog'lari xalqaro sonlarining o'rtacha oylik qiymatlari o'zgarishi ko'rsatilgan.


KYN soni turli kengliklarda har xil o'zgarishi aniqlandi. Ta'kidlanishicha, barcha kengliklar bo'yicha o'rtacha oylik KYN sonining o'zgarish egri chizig'i 23 va 24 siklning kechishi bilan aniq moslikni ko'rsatmaydi (3-rasm, a ga qarang). Korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati manfiy (-0.55) bo'lib, bu KYN soni va quyosh dog'lari soni o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ekvator (3-rasm, b) va faol hosilalar mintaqasi (3-rasm, v) uchun KYN sonining o'zgarishi egri chiziqlari QF jarayoni bilan mos kelmaydi, past darajadagi bog'liqlikni (-0.37

va -0.54) namoyon etadi. Yuqori kengliklarda KYN sonining o'zgarishi (3-rasm, g) ko'rib chiqilayotgan quyosh sikllarining kechishiga nisbatan qarama-qarshi fazada rivojlanib, manfiy korrelyatsiya koeffitsiyentiga ega ($r = -0.75$). Ushbu natija KYNning ikki turi mavjudligini tasdiqlaydi.

Ko'rib chiqilgan barcha holatlarda veyvlet tahlili aniq ifodalangan o'n bir yillik bog'liqlikni aniqladi. Ekvatorda uchta davr yaqqol ajralib turadi: taxminan 11 yil, 12,5 yil va 22 yil. KYNning II tipi yuqori korrelyatsiya koeffitsiyentiga ega ekanligi ($r = 0,86$), birinchi tipi esa ("xira") QF sikli bilan teskari korrelyatsion manzarani ko'rsatadi ($r = -0,87$). Bu bog'liqlik bir qator ishlarimizda 23-dan 24-siklgacha kuzatilgan I.1, I.3, I.8. I turdagi KYNlar butun quyosh diski bo'ylab, ikkinchisi esa asosan faol hosilalar zonasida kuzatiladi. Xuddi shu tendensiyaning har bir KYN turi uchun turli kengliklardagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha kuzatish mumkin. KYN sonining vaqtinchalik profilining veyvlet spektrlari barcha ko'rib chiqilayotgan holatlarda 11 yillik davriylikni ko'rsatdi. II tip KYN uchun 22 yillik sikl yaqqol namoyon bo'ladi. Ehtimol, aynan "yorqin" KYNlar uzoqroq siklik bog'liqliklarning shakllanishiga asosiy hissa qo'shgan bo'lishi mumkin. "Yorqin" KYN holatida yuqori kengliklar uchun uchta davr yaqqol ifodalangan: 11, 12,5 va 22 yil. S_n bo'yicha 23-siklning davomiyligi 12,7 yil, 24-siklniki esa 11,5 yilni tashkil etadi. MB sonining QF sikliga bog'liqligini aniqlash uchun S_n va MB sonining (≤ 30 arcsec) o'zgarishini 10, 20 va 30 Gauss kuchlanganlik darajasi bilan taqqoslash o'tkazildi.

Sikl davomida MB sonining o'zgarishini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, umuman olganda, fotosfera MBlarining o'rtacha oylik soni 23-dan 24-quyosh sikli boshlangunga qadar doimiy bo'lib qoladi (4-rasm, chapdan). MB (10 va 20 Gs) va S_n sonining o'zgarish korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymatlari ahamiyatsiz (10 Gs - 0,099, 20 Gs - 0,36). Boshqa tomondan, MB soni 30 Gs va S_n o'zgarganda korrelyatsion bog'liqlik kuzatiladi (korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,59). Ehtimol, 30 Gs va undan yuqori MBlar quyosh dog'lari sikli bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'lgan efemer sohalarga o'xshaydi va MBning ikki turi mavjudligini ko'rsatadi.

Kuchlanganligi 10 Gs bo'lgan MB o'rtacha oylik sonining vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganish uchun veyvlet-spektrdan foydalanish 7 yil atrofidagi kuchsiz davrni ko'rsatdi (4-rasmning o'ng tomoniga qarang). Bu davr 23-siklning o'rtasiga kelib asta-sekin so'nib boradi va siklning oxiriga kelib yana kuchayadi. 24-siklda 7-yillik davr aniqroq namoyon bo'lib, siklning o'rtasiga kelib asta-sekin kuchayib boradi. Shuningdek, davomiyligi 1 yil bo'lgan ikkita kvazidavriy oraliq kuzatiladi (birinchisi 23-siklda, ikkinchisi, kamroq ifodalangan holda 24-siklda). Bundan tashqari, quyosh faolligi yuqori bo'lgan davrlarda Volf sonlari va quyosh doimiysining veyvlet-spektrlarida yillik davr qayd etilganligi taqqidiotlarda (Kononovich va hammuallif., 2006, Willson va boshq., 1999) ko'rsatilgan.




4-rasm. Chap tomonda turli kuchlanishli MB oʻrtacha oylik sonining oʻzgarish grafiklari, oʻng tomonda tegishli veyvlet spektrlari keltirilgan.

Kuchlanish darajasi 20 Gs boʻlgan veyvlet-spektr holatida uchta davr aniq ajralib turadi: taxminan 1 yil, 7 yil va 11 yil. 30 Gs kuchlanganlikdagi MB oʻrtacha oylik sonining vaqtinchalik profili veyvlet-spektri 11 yillik davrni yaqqol koʻrsatadi.

III bobning **“Kichik masshtabli hosilalarning katta miqyosdagi magnit maydoni bilan bogʻliqligi”** deb nomlangan 3.1-paragrafida KYNlarning yoʻnalishi, rivojlanishi va joylashuvi bilan bogʻliq ikki turdagi KYN va MB ning fotosferada taqsimlanishini oʻrganish natijalari koʻrib chiqilgan. Maksimal quyosh faolligining choʻqqisi yaqinida “xira” KYN bilan bogʻliq MB (10-20 Gs) larning koʻpchiligi, xuddi xira KYNlar singari, ekvator boʻylab yoʻnalishni afzal koʻradi. “Yorqin” KYN bilan bogʻliq MB (30 Gs va undan yuqori) yoʻnalishining tartibsizligi esa yuqori. Ikki turdagi MB va KYN oʻqlarining yoʻnalishi Xeyl (I.6) qonuniga boʻysunmasligi aniqlangan.

Asosan “yorqin” KYNlar quyruq qutblilikda, “xira” KYNlar esa YMMM yetakchi qutblilikda joylashgan. QF minimumi yaqinida “xira” KYNlar quyosh diskining barcha kengliklarida bir tekis kuzatiladi, ammo sikl maksimumiga yaqinlashganda, manzara biroz oʻzgaradi, yaʼni bu turdagi KYNlar quyruq qutblilikdan tashqari butun disk boʻylab tarqalgan. II tipdagi KYNlar faqat quyruq qutbliligida emas, balki QF minimumida qutblanishning ajralish chizigʻi yaqinida

ham katta foizda joylashadi (5-rasm, a ga qarang). QF maksimumida ancha tartibsiz manzara kuzatiladi va II tipdagi KYNlarning joylashuvi ikkala qutbiylikka ham ta'sir qilsa-da, “yorqin” KYNlarning aksariyati ekvatorial mintaqada kuzatiladi (5-rasm, b). Shunday qilib, II turdagi “yorqin” KYNlar kengliklar bo'yicha ikki komponentli taqsimlanishni ko'rsatadi: biri - 60° gacha bir tekis, ikkinchisi esa faol soha yoki dog'lanish markazining kengliklarida ($\leq \pm 30^\circ$), bu quyosh sikli faolligiga qarab o'zgaradi.



5-rasm. II tipdagi KYNlarning fazoviy taqsimoti (“yorqin”): a) Quyosh siklining minimal QF da; b) maksimal QF da.

Kuchlanganligi 30 Gs bo'lgan MB bir xil taqsimlanishni ko'rsatadi. MB (10 va 20 Gs) deyarli barcha kengliklarda bir tekis taqsimlangan. Bu past kuchlanishli “xira” KYN va MB larning fon magnit maydoni bilan, kuchlanganligi 30 Gs va undan yuqori bo'lgan “yorqin” KYN va MB larning esa Quyoshning faol sohalari bilan bog'liqligi natijasi bo'lishi mumkin. Tadqiqotda (Golub va boshqalar, 1975) KYN taqsimotining past kenglikdagi komponenti quyosh dog'lari faolligi bilan bog'liqligi aniqlangan, bu KYN II turida yaqqol kuzatiladi. Quyosh sikli faolligini yanada aniqroq bashorat qilish maqsadida aynan II turdagi “yorqin” KYNlardan foydalanish mumkinligi ko'rsatilgan.

3.2 va 3.3-paragraflarda fotosfera va xromosfera MBlari sonining siklik o'zgarishining quyosh faolligi sikli fazasiga bog'liqligi o'rganilgan, shuningdek, ularning kenglik taqsimoti masalalari ko'rib chiqilgan. Kuchlanganlik darajasi yuqori (10 Gs dan yuqori) bo'lgan fotosfera bipollari uchun kuchlanganlik oshishi bilan taqsimotning kengroq profilga ega bo'lishi aniqlangan. Fotosfera bipollarining kenglik profili QF minimumiga o'tishi bilan torayadi, bu kuchsiz va kuchli magnitli bipollar uchun kuzatiladi, xromosfera bipollari uchun esa bunday bog'liqlik ko'rinmaydi. Ammo xromosferadagi kuchsiz bipollar (10 Gs) uchun aynan 2007-2008-yillarda ikki cho'qqili profilga biroz ustunlik beriladi, bu QF minimumiga mos keladi. Xromosfera MBlarining kenglik taqsimoti kuchlanganlikning o'zgarishi bilan turli xil xususiyatga ega, shuningdek, kuchli MB (30 Gs va undan yuqori) uchun asimmetriya xosdir.

Dissertatsiyaning IV bobi **“Plazmaning statsionar silindrik-simmetrik holatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda ikki komponentli to'qnashuvsiz va elektroneytral plazmaning o'z magnit maydonidagi muvozanat holatlari plazma muhitidagi magnit trubka mavjudligining muqobil modelini analitik hal etish masalasi ko'rib chiqilgan. Termodinamika va magnit gidrodinamika tenglamalariga bo'ysunuvchi zarralarning ma'lum xususiyatlari bilan belgilangan ikki komponentli plazmaning silindrik-simmetrik muvozanat holati sifatida tavsiflangan magnit trubkaning sifat jihatdan takomillashtirilgan analitik modeli (I.15) magnit trubkaning asosiy parametrlarini baholash imkonini beradi. Model kuchli ideallashtirilib, magnit trubkani o'rab turgan plazmaning bir jinsli va harakatsiz bo'lishi sharti bilan cheklangan bo'lishiga qaramay, tanlangan parametrlarda trubka radiusi $2,06 \times 10^6$ m ga teng bo'ldi. Agar KYNning o'rtacha kuzatiladigan o'lchamini 10^8 km² deb olsak, o'rtacha radius taxminan 4×10^4 km yoki 4×10^6 m bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, birinchi yaqinlashishda tok qatlamlarining o'zaro ta'siri natijasida KYN hosil bo'lishining fenomenologik modeli doirasida energiya ajralishi va yashash vaqti ham baholandi. Bu taxminan $1,5 \times 10^{26}$ erg bo'lib, yashash vaqti 1 soatdan 10 soatgacha ekanligi aniqlandi (I.14, I.17).

XULOSA

Kuzatilgan xususiyatlar, KYN morfologiyasi, Quyosh sikli va Quyosh atmosferasidagi boshqa tuzilmalar bilan bog'liqligini tushuntirishdan tashqari, olingan natijalar atmosferaning turli qatlamlarida modellashtirish va muvofiqlashtirilgan kuzatuvlarni birlashtirgan keyingi tadqiqotlar uchun yo'l ochadi. Dissertatsiya tadqiqoti doirasida qo'yilgan vazifalarga muvofiq quyidagi asosiy natijalar olindi:

Quyoshning katta hajmdagi raqamli tasvirlari va magnetogrammalarini avtomatlashtirilgan, tezkor va standartlashtirilgan tarzda qayta ishlash uchun hodisaning fizik mohiyati va natijalarning matematik aniqligi bo'yicha qo'yilgan talablarga javob beradigan maxsus astronomik dasturlar (IDL) paketlari ishlab chiqildi.

2. KYN-MB juftligining evolyutsiyasi va asosiy parametrlarini o'rganish quyidagilarni ko'rsatdi: KYN sonining intensivlik bo'yicha taqsimlanishi yuqori intensivliklar sohasida eksponensial ravishda kamayadi (ikki turga bo'linishini tasdiqlaydi), KYN soni esa o'lcham ortishi bilan eksponensial ravishda kamayadi (asosiy qismi "elementar" KYNlar). MBlarning aksariyati 30 dan 60 pikselgacha o'lchamga ega; ikki turdagi KYNlar turlicha rivojlanadi ("xira" KYNlar MB paydo bo'lishi bilan bog'liq, "yorqin" KYNlar esa magnit oqimlarining yo'q bo'lishi bilan xarakterlanadi); maksimal intensivlik cho'qqilari elementar KYNlarning chaqnashini ko'rsatadi; KYNlar uchun magnit qayta ulanishning aniq tabiatini aniqlash juda murakkab ekanligi va KMP ta'sirini hisobga olish zarurligi aniqlandi.

3. KT sharoitida ikki turdagi KYNlarning evolyutsiyasini o'rganish natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi: barcha kuzatilgan KYNlarning 17 foizi I turga, 83 foizi esa II turga mansub; "yorqin" KYNlarning intensivligi "xira" KYNlarnikidan yuqori; KYNlarning paydo bo'lish holatlarining yarmi qutblarning yaqinlashuvi bilan bog'liq, 6 ta holat esa yangi qutblikning paydo bo'lishi bilan; barqaror qutblilik (18 tadan 10 tasi) ikkinchi qutblilikdan kuchliroq va KTning "ustun" qutbliligi bilan mos keladi.

4. KYN va MB (KTda)ning ikki turiga bog'liqligi aniqlandi: MB va II tip KYNlarning magnit oqimining o'rtacha qiymati $1-5 \times 10^{20}$ Mx atrofida, I tip KYN bilan bog'langan MBlarniki esa $1-5 \times 10^{19}$ Mx oralig'ida; I tip KYN bilan bog'langan MBlarning maydoni 8 burchak sekundidan oshmaydi, II tip KYN holatida esa bu qiymat 12 burchak sekundidan oshishi mumkin.

5. QFning ikki sikli davomida ikki turdagi KYN va MB sonining veyvlet-o'zgartirilishi barcha holatlarda o'n bir yillik davriylikni ko'rsatdi. KYN sonining (barcha kengliklar bo'yicha umumiy) va MB (10 Gs) o'zgarishi 23 va 24 sikllarda Sn o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmasada, II turdagi KYN sonining vaqt profili veyvlet-spektrlarida 22 yillik sikl aniq namoyon bo'ldi. MB holatida esa veyvlet-spektrlar 20 va 30 Gauss kuchlanganlikdagi MB uchun yaqqol ifodalangan o'n bir yillik davriylikni ko'rsatdi. MB holatida esa veyvlet spektrlari 20 va 30 Gauss kuchlanishli MB uchun aniq ifodalangan o'n bir yillik davriylikni ko'rsatdi.

6. Asosan "yorqin" KYNlar orqa qismdagi qutbli YMMMda, "xira" KYNlar esa yetakchi qutbli YMMMda joylashgan bo'ladi. II turdagi KYNlar kengliklar bo'yicha ikki komponentli taqsimotni ko'rsatadi: biri - 60° gacha bir xil, ikkinchisi esa faol soha yoki dog'lanish markazi kengliklarida ($\leq \pm 30^\circ$) bo'lib, bu quyosh sikli faolligiga qarab o'zgaradi. Kuchlanishi past bo'lgan "xira" KYN va MBlar fon magnit maydoni bilan, kuchlanganligi 30 Gs va undan yuqori bo'lgan "yorqin" KYN va MBlar esa faol sohalar bilan bog'liqligi ko'rsatib berildi.

МИНЕНКО ЕКАТЕРИНА ПАВЛОВНА

**МОРФОЛОГИЯ, ДИНАМИКА И ФИЗИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ
КОРОНАЛЬНЫХ ЯРКИХ ТОЧЕК НА СОЛНЦЕ**

01.03.01 – Астрономия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) физико-математических наук зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2020.4.PhD/FM58.

Диссертация выполнена в Астрономическом институте Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.astrin.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эгамбердиев Шухрат Абдуманнапович,
доктор физико-математических наук, профессор,
академик Академии наук Республики Узбекистан

Официальные оппоненты:

Халиков Шукурджон Содикович,
доктор физико-математических наук

Гайнуллина Эвелина Рабиновна,
кандидат физико-математических наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация:

**Астрофизический институт
им. В. Г. Фесенкова (АФИФ)**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. в ____ часов на заседании Научного совета PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 при Астрономическом институте, по адресу: 100052, г. Ташкент, Астрономическая 33, Астрономический институт; тел.: (+99871) 235-81-02, факс: (+99871) 234-48-67, e-mail: info@astrin.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Астрономического института (регистрационный номер _____), по адресу: 100052, г.Ташкент, Астрономическая 33, Астрономический институт; тел.: (+99871) 235-81-02.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года
(реестр протокола рассылки № _____ от «__» _____ 2024 года).

Д.Ш.Фазилова,
Заместитель председателя
Научного совета по присуждению
ученой степени, д.ф.-м.н., профессор

И.А. Ибрагимов,
ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученой степени,
к.ф.-м.н., старший научный сотрудник

А.Б. Абдикамалов,
председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученой степени,
д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире, с развитием современных космических наблюдений, изучению всё более мелкомасштабных образований уделяется большое внимание. Выявление физических свойств корональных ярких точек (КЯТ), изучение их динамики и эволюции, а также закономерностей связанных с магнетизмом Солнца, требует разработки новых методов и подходов при их идентификации, а также представляет большой интерес в рамках решения вопросов возникновения солнечного ветра и нагрева короны. Международный Астрономический Союз (МАС) определяя задачи подчеркнул, что «Новое поколение наблюдательных данных будет стимулировать разработку теоретических моделей, которые будут давать ответы на фундаментальные вопросы астрофизики и физики плазмы, такие как происхождение циклов солнечной и магнитной активности, механизма эруптивных процессов, процессов магнитного пересоединения, механизмов нагрева хромосферы и короны, ускорения и распространения энергических частиц, а также потенциально катастрофического воздействия, которое солнечные возмущения могут оказывать на солнечно-земную космическую среду».¹ При решении этих задач важно изучить тонкую структуру, эволюцию, локализацию и распределение корональных ярких точек относительно магнитных полей различного масштаба, что открывает исключительные перспективы в наблюдении того, как фундаментальные физические процессы работают в солнечной атмосфере.

На сегодняшний день в мире отдается приоритет исследованиям в этом направлении, включая всесторонний статистический анализ наблюдаемых данных по КЯТ и магнитным биполям (МБ), аспекты их эволюции, что требует построения теоретических моделей согласующихся с наблюдениями. Решение этих актуальных задач, может позволить оценить корональное и фотосферное магнитное поле для изучения изменчивости солнечной атмосферы, установить взаимосвязь между внутренней динамикой и магнитной активностью, лучше понять периодичность солнечной активности (СА) и ее эффекты.

В Республике большое внимание уделяется фундаментальным исследованиям в области физики Солнца, в частности, изучению тонкой структуры мелкомасштабных образований в солнечной атмосфере. В целях реализации задач, определенных в «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»² возникла необходимость решения вопроса накопления данных по наблюдениям Солнца, в частности всестороннее исследование свойств и характеристик мелкомасштабных точечных объектов.

¹ IUA Strategic Plan 2020-2030. https://www.iau.org/static/administration/about/strategic_plan/strategicplan-2020-2030.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

Астрономический институт АН РУз. не только обладает богатейшим архивом данных по наблюдению Солнца, накопленным за все время существования Ташкентской астрономической обсерватории (ТАО), но и не одно десятилетие поддерживает изучение мелкомасштабных корональных структур, получивших название КЯТ. Работы по наблюдаемым в рентгеновском и ультрафиолетовом диапазонах компактным образованиям были начаты академиком Ш.А. Эгамбердиевым еще в начале 80-х, а позже продолжены коллективом под руководством профессора И.С. Саттарова. Исследования в этой области ведутся на высоком международном уровне, что позволяет проводить их совместно с астрономическими центрами США, Китая, России, стран ЕС и другими. С учетом вышеизложенных причин тема исследования представляется достаточно интересной и актуальной, что не только подчёркивает научную ценность и важность её изучения, но и необходимость дальнейших исследований в этом направлении.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан за № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также в Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-5032 «О мерах по повышению качества образования и совершенствованию научных исследований в области физики» от 19 марта 2021 года и других нормативно - правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данная научно-исследовательская работа соответствует положениям Указа Президента Республики Узбекистан, от 29.10.2020 г. № УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», пункты, приведенные в главе 3 «Приоритетные направления развития науки»: - «в-третьих, Подготовка высококвалифицированных научных и инженерных кадров и их ориентация на научную деятельность» и «пятое, Формирование современной информативной среды, способствующей развитию науки».

Степень изученности проблемы. Ведущими учеными мира, например, американскими (L. Golub, A.S. Krieger, K.L. Harvey, S.F. Martin, D.W. Longcope, C.C. Kankelborg, E.N. Parker, S.W. McIntosh, J.L. Nelson, A.A. Pevtsov, M.S. Madjarska, G.S. Vaiana, Sh.R. Habbal, G.L. Withbroe, N.R. Sheeley, D. Moses, A.F. Timothy и др.), китайскими (Ch. Mou, Z. Huang, Q.M. Zhang, P.F. Chen, T.J. Wang, C. Lu, H. Tian, M. Wan, P.X. Gao и др.), английскими (C.E. Parnell, B. Ramsey, E. Verwichte, H. Morgan и др.), японскими (H. Hara, K. Nakakubo-Morimoto и др.), иранскими (N. Alipour, H. Safari, D.E. Innes и др.), российскими (А.Н. Жуков, Б. Филиппов, А.Г. Тлатов, В.И. Абраменко, А. С. Ульянов и др.), немецкими (D.A. Muller, V.H. Hansteen, H. Peter, и др.) получен большой объем наблюдательных данных КЯТ в различных диапазонах длин волн, выполнены экспериментальные и теоретические исследования мелкомасштабных структур, их физических и

